



## XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING QARORI

---



---

2023 - yil 9 - noyabr

VI-61-92-11-154-K/23

Buvayda tuman hokimligi

### **Buvayda tuman mahalliy budgetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidagi mablag'laridan foydalanish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda qabul qilingan “2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi O'RQ-813-sonli Qonuniga (*Keyingi o'rinnlarda Qonun deb yuritiladi.*) muvofiq, Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budgetlarni boshqarishda erkinliklar berilib, soliqlar va yig'imlar bo'yicha stavkalarini belgilash, mahalliy budjeti xarajatlarini hududiy budget mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirildi.

Mazkur Qonunga hamda Buvayda tuman mahalliy budgetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidagi mablag'laridan foydalanish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonuning 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

**1.** O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 119-126-moddasiga hamda “2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi O'RQ-813-sonli Qonuniga muvofiq Buvayda tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Ergashevning 2023 yil III -chorak mahalliy budjeti ijrosi to'g'risidagi hisoboti qabul qilinsin. Mazkur hisobotdan kelib chiqib, Buvayda tuman mahalliy budgetining Buvayda tuman mahalliy budgetining 2023 yil III-chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidagi mablag'lari **8 million 950.0 ming.so'm** miqdorida shakllanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin;

- Buvayda tuman mahalliy budgetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidagi mablag'larini birinchi navbatda Hukumat qaror va bayonlarida ko'zda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirishga, muhim Davlat dasturlari ijrosini ta'minlashga, aholini turmush farovonligini oshirishga hamda favqulodda vaziyatlarda va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar ijrosini ta'minlashga yo'naltirish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

**2.** Buvayda tuman mahalliy budgetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidagi mablag'lari belgilangan maqsadlar uchun yo'naltirilishi ta'minlansin. Bunda,

- fuqarolar ishtirokining tuman budgetlari qo'shimcha manbalarining kamida 30 foizidan kam bo'limgan miqdorda ya'ni **2 million 685.0 ming.so'm** “Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”ga jamoatchilik fikri

asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirilsin;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 11 martdagi "Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 132-sonli qarorining 2-bandiga asosan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini to‘ldirish uchun shakllangan mablag‘ning kamida 15 foizini ya’ni **1 million 343.0 ming.so‘m** yo‘naltirilsin;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagi "Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-5020-sonli qarorining 7-bandiga asosan «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini to‘ldirish uchun shakllangan mablag‘ning kamida 15 foizini ya’ni **1 million 343.0 ming.so‘m** yo‘naltirilsin;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda xukumati qaror va farmonlarida belgilangan tadbirlar hamda qonunda taqiqlanmagan boshqa maqsadlar uchun **3 million 579.0 ming.so‘m** yo‘naltirilsin.

**3.** Tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.G‘aniev), ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda, o‘z vaqtida tegishli jamg‘armalarga o‘tkazish vazifasi yuklansin.

**4.** Tuman hokimining birinchi o‘rnbosari (D.Mirzaxalilov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Ergashev)lar tegishli ravishda budget mablag‘lari taqsimlovchilarning budget mablag‘laridan samarali foydalанилиши ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini Kengashga kiritib borilishini ta’minalas.

**5.** Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budget, iqtisodiy isloxtlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (X.Akbarov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Odiljonovich I. B.